

# **Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimi**

**orgali xizmat ko‘rsatish bo‘yicha**

**ShARTNOMA №\_\_\_\_\_**

—yanvar 2024-yil

Toshkent sh.

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Bosh amaliyotlar boshqarmasi Nizomi hamda 2024-yil  
Bosh ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi boshqaruvchi \_\_\_\_\_ (Bank)  
hamda \_\_\_\_\_ Ustaviga muvofiq faoliyat yurituvchi yuridik shaxs /  
yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan tadbirkorlik subyekti rahbari  
(Mijoz) ushbu shartnomani quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

## **1. Shartnoma predmeti**

1.1. Bank mijozning topshirig‘iga ko‘ra uning hisobvaraqlariga elektron usul orqali xizmat ko‘rsatadi.

1.2. Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko‘rsatish dasturiy majmuasi (dasturiy majmua) mijozga tegishli texnika asosida ushbu majmuaga ulanish hamda elektron raqamli imzo qo‘yishga ruxsat beruvchi elektron kalit va maxsus dasturiy ta‘minotni vaqtinchalik foydalanishga berishni o‘z ichiga oladi.

1.3. Elektron kalit 2 donadan ortiq bo‘lmagan miqdorda mijozning yozma arizasida ko‘rsatilgan shaxslarga beriladi. Ariza ushbu shartnoma imzolanishidan oldin bankka takdim qilinishi lozim.

1.4. Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimi (tizim) orqali mijozning bankda ochgan shaxsiy depozit hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarini amalga oshirishga ruxsat beriladi.

1.5. Tizim orqali elektron to‘lov hujjati sifatida faqatgina to‘lov topshiriqnomasini qo‘llash mumkin.

1.6. Tizim va elektron kalit bank mulki bo‘lib hisoblanadi.

## **2. Taraflarning huquq va majburiyatları**

### **2.1. Bank :**

—mazkur shartnoma imzolangandan so‘ng 10 kun ichida mijozga tizimga ulanish uchun ruxsat berishga, dasturiy vositalarni o‘rnatish va ularni mijozga foydalanish uchun taqdim qilishga;

—elektron raqamli imzo kalitlarini ro‘yxatga olish markazida ro‘yxatga olingan, elektron imzo qo‘yish huquqini beruvchi elektron kalit bilan mijozni ta‘minlashga;

—mazkur shartnoma imzolanishidan oldin, tizimni ishlatish uchun talab qilinadigan barcha texnik vositalar (kompyuter, modem, printer va boshqalar)ning mavjud va soz holda bo‘lishini ta‘minlashga;

—mijozdan elektron kalitning yo‘qotilgani to‘g‘risida xabar olganda, ushbu imzo bilan yuborilgan barcha to‘lov hujatlari bo‘yicha operatsiyalarini to‘xtatib, tizimga kirishni bekor qilishga hamda bu haqda mijozga 1 kun ichida xabar berishga majbur.

### **2.2. Mijoz :**

—mazkur shartnoma tuzilishi arafasida tizimni ishlatish uchun zarur barcha texnik vositalar (kompyuter, modem, printer va boshqalar)ning mavjud va soz holda bo‘lishini ta‘minlashga;

—tizimda ro‘yxatdan o‘tmagan shaxslarga elektron kalit va dasturiy ta‘minotni bermaslikka hamda dasturga kirish parolini oshkor etmaslikka;

—elektron kalit yo‘qotilgan, buzilgan yoki shikastlangan taqdirda uning qiymatini to‘lashga;

—mazkur shartnomaning 3.4 bandidagi holat yuzaga kelganda, bu haqda bankni zudlik bilan ogoh qilishga;

—mijoz faoliyatini vaqtincha yoki butunlay to‘xtatsa, bu haqda bankni 2 bank kuni ichida yozma ravishda xabardor qilishga majbur.

### **2.3. Bank :**

—mijoz tomonidan mazkur shartnoma bo‘yicha majburiyatlar bajarilmaganda mijozga tizim orqali xizmat ko‘rsatishni to‘xtatishga hamda shartnomani bir tomonlama bekor qilishga;

—mijoz hisobvarag‘ida to‘lov uchun mablag‘lar yetarli yoki mavjud bo‘lmasa, mijoz

tomonidan tizim orqali bankka yuborilgan elektron to‘lov topshiriqnomasi qayta ishlash uchun bank amaliyot kuniga qabul qilmaslikka;

–mijoz tomonidan amalga oshirilgan shubhali operatsiyalar aniqlanganda, ushbu operatsiyalarning qonuniyligi haqida mijoz yozma tushuntirish bergunga qadar, amaldagi tartibga muvofiq ushbu xizmatlarni to‘xtatib turish yoki xizmatlar ko‘rsatishni rad etishga;

–mijozning tizimdan foydalangan holda shubhali operatsiyalar amalga oshirilganligi haqidagi gumonlar (shubhalar) tug‘lganda, mijozning joylashgan yeri (pochta manzili) bo‘yicha yoki ushbu shartnomada belgilangan manzil bo‘yicha o‘rganishga (o‘rganish jarayonida bank mijoz tomonidan naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida qonun hujjatlari talablariga rioya qilinishini, jumladan pul hisob-kitob hujjatlarining rasmiylashtirilishi, ularning mijozning vakolatli shaxslari (rahbari, bosh hisobchisi) tomonidan imzolanib tasdiqlanishi, ushbu hujjatlar bo‘yicha o‘tkazmalar faqat aynan elektron imzolash huquqi mavjud bo‘lgan shaxs tomonidan elektron imzolash orqali tasdiqlangandan keyin amalga oshirilishiga, mazkur hujjatlarning saqlanishiga e’tibor qaratilishi lozim);

–mijoz tomonidan shubhali operatsiyalar amalga oshirilganda tizim orqali xizmat ko‘rsatishni 3 bank kuniga to‘xtatishga yoki shartnomani bir tomonlama bekor qilishga;

–tizim orqali mijozga ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haq olishga;

–mijozning boshqaruv organi yoki uning nomidan ishonchnomasiz faoliyat ko‘rsatish huquqiga ega shaxs pochta manzili bo‘yicha mavjud bo‘lmasa, atayin noto‘g‘ri bo‘lgan xujjatlar taqdim etilsa yoki qonun xujjatlariga muvofiq hujjatlar taqdim etilmasa, shuningdek qonun xujjatlarda nazarda tutilgan boshqa hollarda mijoz operatsiyalarini bajarishni rad etishga haqli.

#### 2.4. Mijoz :

–bankdan tizimni ishlatish qoidalari hamda ushbu qoidalarga kiritilgan o‘zgartirishlar to‘g‘risida axborot olish;

–tizim turli sabablarga ko‘ra ishlamagan taqdirda, bankka kelib belgilangan tartibda to‘lov hujjatlarni o‘tkazish huquqiga ega.

### **3. Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimi majmuasining ish tartibi**

3.1. Tizimga ularish uchun dasturiy vositalar, ularni o‘rnatish hamda ishlatish bo‘yicha tayyorlangan materiallar, foydalanuvchining unikal nomi va paroli, shuningdek dasturning ish vaqtini ko‘rsatilgan xabarni muhrlangan konvertda ushbu shartnomaning 1.3 bandida ko‘rsatilgan mijozga konvertni qabul qilib olganlik to‘g‘risida maxsus daftarga qo‘yilgan yozma tilxat asosida taqdim qilinadi.

3.2. Tizim o‘rnatilgandan so‘ng bu haqda ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi. Dalolatnoma tuzilgan kundan boshlab tizim ishga tushadi.

3.3. Tizim bo‘yicha taraflarni ish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me’yoriy hujjatlariga asosan amalga oshiriladi.

3.4. Mijoz, har kuni tizimning ish faoliyati boshlanishidan oldin, o‘tgan kun uchun “hisobvaraqdan olingan ko‘chirma”lar yordamida bank bilan o‘z hisobvaraqlaridagi aylanmalar va qoldiqlarni solishtirishi shart. Agar bank ko‘chirmasi va mijoz hisobvarag‘i o‘rtasida farq aniqlansa, hisobvaraqni blokirovka qilish hamda farq sababini aniqlash uchun mijoz bank filialini zudlik bilan ogoh qilishi lozim. Bank va mijoz, o‘rtasida farq bo‘yicha aniqlik kiritilib, solishtirma dalolatnoma rasmiylashtirilmagunga qadar blokirovka bekor qilinmaydi.

3.5. Bank ish rejimiga asosan aloqa kanallari orqali yuborilgan hisob-kitob hujjatlarini qabul qiladi (dam olish kunlardan tashqari). Bank joriy kun to‘lovlarni, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘lov tizimining ish vaqtini tugashiga 1 soat qolgunga qadar taqdim etilgan hisob-kitob hujjatlar bo‘yicha amalga oshiradi. Belgilangan muddatdan keyin qabul qilingan to‘lov hujjatlari bankning keyingi amaliyot kunidan kechiktirilmasdan amalga oshiriladi.

3.6. Mijoz tomonidan tizimga kiritilgan hisob-kitob hujjatlari IABS dasturida “kiritilgan” holatida paydo bo‘ladi. To‘lov hujjatining to‘g‘ri (noto‘g‘ri) rasmiylashtiril-ganligi tekshirgan bank bosh buxgalteri to‘lov hujjatini tasdiqlaydi (rad etadi).

3.7. To‘lov amalga oshirilgandan so‘ng elektron to‘lov hujjatlari reestr ko‘rinishda chop etiladi va bankning kunlik hujjatlar yig‘majildiga tikiladi.

3.8. Elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan elektron to‘lov hujjati pul-hisob-kitob hujjatining asl nusxasiga tenglashtiriladi va u bilan bir xil yuridik kuchga ega bo‘ladi.

3.9. Tizim orqali yuborilgan pul-hisob-kitob hujjatlarining asl nusxalari bankka taqdim qilinmaydi va mijozda saqlanadi. Bunda, pul-hisob-kitob hujjatlari rasmiylash-tirilishining to‘g‘riliqi, ularning elektron va qog‘oz ko‘rinishlari muvofiqligi bo‘yicha javobgarlik mijozga yuklatiladi.

3.10. Tizim orqali xizmat ko‘rsatiladigan shaxsiy hisobvaraqlardan ko‘chirmalar mijozning o‘zi tomonidan chop qilinadi. Mazkur shartnomaga muvofiq mijoz hisobvaraqlaridan ko‘chirmalar bank tomonidan chop qilinishi mumkin.

3.11. Mijozning elektron raqamli imzo kaliti yo‘qolganda, identifikatsiya va autentifikatsiya ma’lumotlari uchinchi shaxslarga ma’lum bo‘lib qolgani bo‘yicha shubha tug‘ilganda, tizim orqali xizmat ko‘rsatishni to‘xtatish yuzasidan mijoz bankni darhol mazkur shartnomaga muvofiq xabardor qilishi kerak. Mijozga yangi elektron kalit berilgunga qadar tizimda operatsiyalarni amalga oshirishga ruxsat berilmaydi.

3.12. Agarda mijozning muddatida to‘lanmagan hisob-kitob hujjatlari (K-2) bo‘yicha qarzdorligi mavjud bo‘lsa, tizim orqali to‘lovlarni o‘tkazish K-2dagi qarzdorlik to‘liq to‘langunga qadar to‘xtatiladi (to‘lovlar amaldagi tartibga muvofiq bankning buxgalteriya mas’ul xodimi tomonidan amalga oshiriladi).

#### **4. Mazkur shartnoma bo‘yicha o‘zaro hisob-kitoblar**

4.1. Bank tomonidan Mijozga tizimni o‘rnatish uchun hamda dasturiy majmua bo‘yicha mijozni birinchi marta “i-key” xavfsizlik elektron kalitlari bilan ta’minalash uchun haq undirilmaydi.

4.2. Bank mijozni ikkinchi marta “i-key” xavfsizlik elektron kalitlari bilan ta’minalaganda (“i-key” elektron kalitlari mijozning ehtiyoitsizligi sababli ishdan chiqsa yoki yo‘qolganda), bank tarifiga muvofiq haq undiriladi.

4.3. Amalga oshirilgan to‘lov operatsiyalari miqdoridan kat‘i nazar abonent to‘lov bir oy uchun bank tarifiga muvofiq mijoz hisobvarag‘idan memorial order orqali yechib olinadi.

#### **5. Taraflarning javobgarligi**

5.1. Mijoz elektron hisob hujjatlarining to‘g‘ri shakllantirilishi, dasturga bog‘lanishda aloqa kanalini to‘g‘ri tashkil etilganligi shuningdek, tizim bo‘yicha axborot xavfsizlik hamda elektron kalit va dasturiy vositalarning to‘g‘ri ishlatalishi bo‘yicha javobgardir.

5.2. Bank mijozning hisobvaraqlaridan pul mablag‘larining to‘g‘ri o‘chirilishi, kirim qilinishi hamda elektron to‘lovlari to‘g‘risida o‘z vaqtida ma’lumot taqdim qilish bo‘yicha javobgardir.

5.3. Mijoz pul-hisob-kitob hujjatlari rasmiylashtirilishining to‘g‘riliqi, ularning elektron va qog‘oz ko‘rinishlari muvofiqligi bo‘yicha javobgar hisoblanadi.

5.4. Mijoz uchun berilgan elektron kalitdan uchinchi shaxslarning foydalanishi oqibatida mijozning o‘ziga yoki bankka yetkazilgan zarar buyicha javobgarlik mijozga yuklatiladi.

5.5. Ko‘rib yoki kuzatib bo‘lmaydigan hamda bankka bog‘liq bo‘lmagan holda tizimning ishlamasligi natijasida to‘lovlarni amalga oshirilmaganligi to‘g‘risida mijoz bankni xabardor qiladi. Mazkur holatda bank javobgar bo‘lmaydi.

#### **6. Nizolarni hal qilish tartibi**

6.1. Ushbu shartnomaning bajarilishi yuzasidan kelib chiqadigan nizolar taraflarning o‘zaro kelishuvi orqali hal etiladi.

6.2. Taraflar kelishuvga erishmagan taqdirda, nizolar O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari asosida sud orqali hal etiladi.

#### **7. Yakuniy qoidalar**

7.1. Ushbu shartnoma nomuayyan muddatga tuziladi va tizim ishga tushgan paytdan boshlab kuchga kiradi.

7.2. Ushbu shartnoma qaysi tarafning tashabbusi bilan bekor qilinganidan qat‘i nazar elektron kalitni shikastlamasdan uni butun holda bankka qaytaradi.

7.3. Ushbu shartnomaga o‘zgartirish va qo‘srimchalar, taraflar tomonidan imzolangan holda yozma ravishda kiritiladi.

7.4. Ushbu shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan 2 nusxada tuzilib, taraflarga bir

nusxadan taqdim etiladi.

#### 8. Taraflarning pochta manzili va rekvizitlari

<b>“Bank”</b>	<b>“Mijoz”</b>
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB BXO Manzili: _____  h/r 16103000700001037001 Bank kodi (MFO) 01037 INN 206916313 Tel: _____  Boshqaruvchi: _____  _____ (imzo) M.O’. Bosh hisobchi _____	Manzili: _____  h/r _____ Xizmat ko‘rsatuvchi bank kodi (MFO) 01037 INN _____ Tel: (+998) _____ Rahbar: _____  _____ (imzo) Bosh hisobchi _____